

## **ALOHIDA TA'LIM EXTIYOHLARI BO'LGAN (AQLI ZAIF ) BOLALAR BILISH FAOLIYATINI TIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI**

*Nabiyev Ravshanjon Shavkatjon o'g'li  
Qo'qon DU "Maxsus pedagogika" kafedrasini o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Bu maqolada aqli rivojlanishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning bilish faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari, korreksiyalash usullari keltirib o'tilgan. Aqliy nuqsonga ega bo'lgan o'quvchilarda bilish faoliyatining psixologik ishlar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** ehtiyoj, aqli zaiflik, korreksiya. nutq, nutq o'stirish, rivojlanish, ruhiy jarayonlar, meyor, patalogiya

Aqli zaif o'quvchilar meyorda rivojlanayotgan o'z tengdoshlari orasida xarakterli farqlardan biri – bilim faoliyatining yetarli rivojlanmasligi hisoblanadi. Rivojlanishi orqada qolgan o'quvchilarning umumiy tavsifi uning verbal imkoniyatlari doimio past ekanligini ko'rstadi. Shuningdek, o'quvchi nutqining rivojlanishi darajalari va uning intellekti orasida o'zaro murakkab munosabatlar xukm suradi. Taniqli rus psixologi L.S.Vigotskiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning psixik faoliyatining rivojlanish imkoniyatlariga tayanib, aqliy rivojlanishi bunday o'quvchilar o'ziga xos, meyordagi tengdoshlari kabi umumiy qonuniyatlar asosida rivojlanib borishini ta'kidlagan.

Me'yorda rivojlanish barcha bosqichlarida dinamik tarzda amalga oshsa, aqli zaif o'quvchilar rivojida bir mucha chetga chiqish ko'zga tashlanadi. Aqli zaif o'quvchilar rivojlanishi bosh miya nuqsoni asosida kechadi. Demak, aqli zaif o'quvchilar markaziy asab tazimining turli tomonlari, ruhiy jarayonlar adinamik tarzda rivojlanadi.

Bu borada L.S.Vigotskiyning birlamchi va ikkilamchi nuqsonlar nazariyasi, "erishilgan va yaqin vaqtarda rivojlanish mumkin bo'lgan daraja" haqidagi ilmiy ishlar nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi.

J.I.Shifning e'tirof etishiga, "Aqli zaif o'quvchilar ruhiyati normal o'quvchi ruhiyati kabi rivojlanish davrlarini boshidan kechiradi" <sup>1</sup>.

Ruhiyatning rivojlanish qonuniyatlariga ta'lif – tarbiya ham ma'lum darajada ta'sir etadi.

AS.Vigotskiy birlamchi nuqsolarni ajrata bilish zarurligini ko'rsatdi.

Dastlabki va tez-tez uchraydigan nuqson psixologik funksiyalarning rivojlanmasligidir. Buning asosida xotira, tafakkur, xarakter buzilishlari yotadi.

<sup>1</sup> J.I.Shifning "Mahsus maktab o'quvchilarida nutq rivojlanishi va boshqa aqliy faoliyatining jarayonlari".

Nuqsonli o'quvchi ruhiyati rivojlanishning asosiy belgisi biologik va madaniy rivojlanish orasida bog'liqlikning buzilishidir deb ta'kidlaydi L.S.Vigotskiy.

O'quvchidagi biologik nuqson o'z navbatida madaniy bilimlarni egallashga to'sqinlik qiladi. L.S.Vigotskiy nazariyasiga ko'ra, oliv ruhiy funksiyalar xotira, tafakkur, xarakter madaniy rivojlanish maxsulidir. Aqli zaif o'quvchi bir-biridan uzoqlashishi natijasiada ulardag'i intilish va talablar diogarmonik, uyg'un bo'lмаган tarzda shakllanadi. S.S.Korsakov "Chuqur darajadagi aqli zaif o'quvchilarda atrofni bilishga bo'lgan intilish shakllanmagan" deb ta'kidlagan edi. Bu fikrlarni T.YE.Suxareva o'z ishlarida rivojlantiradi.

M.G.Blyumina esa "Bog'cha yoshidagi aqli zaif o'quvchilarga bo'shlik, zaiflik, tashabbussizlik, qiziqishlarning yetmasligi xosdir" deb ko'rsatadi. Psixik rivojlanishning orqada qolishini guruhash intellektual nuqsonning mavjudligi darajasiga qarab belgilanadi. (V.G.Petrova, V.I.Lubovskiy, A.P.Gozova, I.G.Yermenko, V.V.Kavalyov, T.YE.Suxareva).

S.YE.Mnuxin va D.N.Isayevlar neyrofizologik tonusning xolatiga qarab oligofreniyaning shakllarini a) astenik, b) stenik, v) atonik, disforik tarzda ajratdilar.

T.YE.Suxareva bosh miyaga ta'sir etuvchi potologik faktorning vaqtiga asoslanib, oligofreniyaning 3 ta shaqlini qayd qiladi<sup>2</sup>:

- 1) Endogen tabiatli;
- 2) Embrio – fetopatik;
- 3) Perenatal kelib chiqish;

Aqli zaiflikning klinik jihatdan darajalarga ajratish faqat tibbiy davolashga emas balki pedagogik korreksiya uchun ham muhum ahamiyatga ega.

Aqli zaif o'quvchilarning bilish faoliyatidagi kamchiliklarini erta tashxis qilish, turg'un buzilishi va uni bartaraf etish, ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil qilish o'quvchining keyingi ijtimoiy hayotiga moslashuviga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlilining ko'rsatishicha turli mualliflar oligofreniyada yetakchi sindrom sifatida o'zlarining fikr – qarashlarini ilgari surmoqdalar kurt Levin oligofreniyada yetakchi belgi – affektiv iroda sohalarining buzilishini ta'kidlaydi. M.Pevzner esa aqli zaif o'quvchilarda umumlashtirish qobiliyatlarining qiyinlashganini, yomonlashganini asosiy belgi sifatida ko'rsatadi. A.R.Luriya esa, aqli zaif o'quvchilarda nutqning boshqaruvchilik rolini zaif darajadaligini ta'kidlaydi.

Tekshirish shuni ko'rsatadiki, aqli zaif o'quvchilarda bilish jarayoning barcha bosqichlarida kamchiliklar kuzatiladi. Buning natijasida ular atrof – muhit haqida to'liq bo'lмаган, xatto noto'g'ri taasurotlar oladilar. Aqli zaif o'quvchilarda bilishning birinchi bosqichi – idrok qilishda yetishmovchiliklar kuzatiladi. Aqli zaif o'quvchilar idrokning o'ziga xos xususiyati bilan ajralib turishi berilayotgan o'quv materiallarini

<sup>2</sup> "Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar diagnostikasi". T.Ye.Suxareva.

idrok qilish uchun uzoq vaqt talab etilishi, assosiy narsalarni muhim belgilar va alomatlarini ajratishda qiyonalishi, yaxlitlashdagi qismlar orasida ichki bog'lanishni tushunmasligi bilan belgilanadi.

Aqli zaif o'quvchilar fazo va vaqtini idrok qilishda qiyinchiliklarga duch keladilar, bu esa atrof muhitda moslashishga to'sqinlik qiladi. Ko'pincha 8-9 yoshga yetgan o'quvchilar o'ng va chap qo'llarini ajrata olmaydilar. Ular soatdan vaqtini aniqlashga, hafta kunlarini, yil fasllarining ketma-ketligini bilishga qiynaladilar, ranglarni ajratishda muayyan xatolarga yo'l qo'yishadi.

Tafakkur bilimining ilmiy manbai va mexanizmi xisoblanadi, bir tizimiga solish kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi. Aqli zaif o'quvchilarda bu jarayonlar, yetarli darajada shakllanmagan va ular o'ziga xos xususiyatga egadir. Shunga ko'ra narsalarning taxlili ular tomonidan tizimsiz ravshda amalga oshiriladi, buning natijasida o'quvchilar narsalarning qismlari orasidan bog'liqlikni aniqlashga qiynaladilar. Tahlilning mukammal bo'limganligi sababli predmetlar o'rtasidagi aloqadorlikni farqlamaydilar.

Predmetlarni qismlarga ajratgan xolda ularning o'zaro bog'liqligini aniqlashda ham qiyinchilikka uchraydilar. Aqli zaia o'quvchilarda predmet bilan tanishishga befarq, loqayddirlar. Predmetlarni bexafsالalik bilan sekin, xoxishsiz ishlaydilar. Bir necha martta manupulyativ xarakatlarni amalga oshiradilar.

O'quvchilarga ta'lim jarayonida predmetli faoliyatni o'z vaqtida rivojlantrish ularning keyingi faoliyatlarining shakllanishida katta rol o'ynaydi. Aqli zaif o'quvchilar ko'p xollarda tevarak – atrofdagi predmetlarga nisbatan befarq qaraydilar. Shu bilan birga maktabgacha tarbiya yoshdagi o'quvchilar predmet bilan faoliyatda predmetlarning xususiyatlarini anglashda qiyinchiliklarga duch keladilar.

Aqli zaif o'quvchilar predmetlarning nomi, qismlari va ularning vazifalarini yaxshi bilsalargina ularni o'z rasmlarida aks ettirish, o'yin va boshqa faoliyatlarda foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu aqli zaiq o'quvchilarning ta'lim jarayoni uchun muhum omil bo'lib hisoblanadi.

Predmet va narsa – hodisalarni taqqoslash jarayonida aqli zaif o'quvchilar tafakkurining o'ziga xosligi yaqqol ko'rinish turadi. O'quv materialini idrok qilish va anglashning o'ziga xos xususiyatilari o'quvchilarning xotiralari bilan bog'liq. Xotiraning assosiy jarayonlarida esda qolish, esiga tushirish aqli zaif o'quvchilarda o'ziga xos tarzda rivojlanadi. L.V.Zankov va V.G.Petrovlar ko'rsatganidek aqli zaif o'quvchilar xotirasining sustligi ularni ma'lumotlar olish va esda saqlashdagi qiyinchiliklari tufayligina emas, balki shu ma'lumotlarni esga tushirish qiyinchiliklari bilan ham bog'liqidir. Aqli zaif o'quvchilar tasavvuri o'zining sustligi bilan ham ajralib turadi. Ular tasavvurlarining xiraligi, torligi, beqarorligi bilan meyordagi tengdoshlaridan farqlanishini keltirib chiqaradi.

Nutqning idrok qilish va tushunish ongning o'sishiga, uning yangi bilim va ko'nikmalar xosil qilishga ta'sir qilib qolmasdan, balki ong tarkibini tartibga soladi, insondagi oliy, o'ziga xos ruxiy jarayonning vositaviy qurilishini belgilaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Maxsus pedagogika. Po'latova P.M. "Fan va texnologiya" nashiryoti 2014. 368 bet
2. Nurmuxamedova L.SH. Oilada nogiron farzandni tarbiyalashning pedagogic xususiyatlari. Ped.fan.nomz.dis....avtoref. – T.:Nizomiy nomidagi TDPU.2005. -26
3. Shavkatjon o'gli, Nabiyev Ravshanjan. "METHODS OF STUDYING THE EDUCATIONAL ACTIVITY OF MENTALLY WEAK STUDENTS OF Q HOME CLASS ON THE BASE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES."
4. Shavkatjon o'g'li, Nabiyev Ravshanjon. "BOSHLANG 'ICH SINF AQLI ZAIF O 'QUVCHILAR NUTQINI O 'STIRISH." RESEARCH AND EDUCATION 1.1 (2022): 263-267.
5. O'gli, Nabiev Ravshanjon Shavkatjon, and Quchqorova Farida Erkin Qizi. "Features of the Higher Nervous Activity and Psychic Processes of Students with Intellectual Deficiencies." Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching 19 (2023): 146-151.
6. O'gli, Nabiyev Ravshanjon Shavkatjon, and Ortiqboyeva Parizoda Ismoiljon Qizi. "Families of Children with Defects in the Development of Pedagogical-Psychological Work." Journal of Pedagogical Inventions and Practices 19 (2023): 143-146.